ARTUR KONAN DOYL DETEKTIVLARIDA IZQUVAR PORTRETINING BADIIY-ESTETIK FUNKSIYALARI

Abdusalimova Sadoqatxon
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Maqolada portret tasviri, uning tasvirlanish usuli va badiiy ifoda xususiyatlariga ko‘ra turlari detekriv asarlar misolida tahliliy o‘rganilgan. Artur Konan Doyl detektivlarida izquvar ruhiyati masalasi psixologik portert vositasida yoritilgan. Muallif detektivlarida dinamik portret yetakchilik qilishi, psixologik detallarga murojaatning ustuvorligi badiiy mahorat kontekstida asoslangan.*

Аннотация. *В статье представлено аналитическое исследование портрета-способов изображения и различных форм художественного воплощения-в контексте детективного жанра. В детективных произведениях Артура Конан Дойла внутреннее состояние сыщика раскрывается посредством психологического портрета. Автор статьи утверждает, что преобладание динамического портрета и особое внимание к психологическим деталям в этих произведениях служат важнейшими показателями художественного мастерства автора.*

Annotation. *This article presents an analytical study of portraiture-examining methods of depiction and various types of artistic expression-within the context of detective fiction. In the detective stories of Arthur Conan Doyle, the inner state of the investigator is explored through the use of psychological portraiture. The author argues that the prevalence of dynamic portraiture and a strong emphasis on psychological detail in these detective works serve as key indicators of the author’s artistic mastery.*

Kalit so’zlar. *Detektiv, portret, statik portret, dinamik portret, psixologik portret.*

Ключевые слова. *Детектив, портрет, статический портрет, динамический портрет, психологический портрет.*

Keywords. *Detective, portrait, static portrait, dynamic portrait, psychological portrait.*

Kirish. Portret tasviri badiiy asarda qahramon obrazini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib, u orqali kitobxon tasavvurida jonli obraz yuzaga keladi. Mazkur obraz esa o‘quvchida qahramonning tashqi qiyofasi va ichki dunyosi haqida dastlabki tasavvurni hosil qiladi. Badiiy asarda portretning asosiy vazifasi – qahramonning ruhiy holati va ichki dunyosini ochish. Shu sababli, portretning shakli

va mazmuni yozuvchining individual uslubi va ijodiy maqsadlariga bog‘liq bo‘lib, turlicha darajada berilishi mumkin. Ba’zan qahramonning tashqi ko‘rinishi va xatti-harakati batafsil tasvirlanadi, ba’zan esa faqat muhim detal orqali uning xarakteri ochib beriladi. Xuddi detektiv asarlardagi portretlar tasviri singari. Shuningdek, portret muallifning personajga bo‘lgan qarashini, bahosini, simpatiya, antipatiyasini ham aks ettiradi va o‘quvchiga ushbu qahramonning syujetdagi roli haqida oldindan tushuncha beradi.

Yozuvchi har bir qahramonni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi. Bunda portret tasviri orqali qahramonning individual xususiyatlari, ruhiy kechinmalari va syujetdagi o‘rni yanada aniqroq namoyon bo‘ladi

Bu borada professor D.Quronov portretni qahramon xarakterini ochishda muhim badiiy vosita sifatida talqin qildi. Olim portretning badiiy imkoniyatlarini tahlil qilar ekan, uning qahramon tasvirini berishdagi turli ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatadi. Shu tasnifga tayangan holda badiiy asarlarda portretning statik va dinamik turlari farqlanadi. Mazkur ilmiy qarashlarni umumlashtirgan holda esa portret tasviri tasvirlanish usuli va badiiy ifoda xususiyatlariga ko‘ra uch asosiy turga ajratiladi:

1. Statik portret.
2. Dinamik portret.
3. Kontrast portret

Portretning statik usuli an’anaviy bo‘lib, hozirgi adabiy jarayonda unga nisbatan murojaat susayib bormoqda. “Statik” atamasi yunoncha “statikos” so‘zidan olingan bo‘lib, “harakatsiz”, “o‘zgarmas” degan ma’nolarni anglatadi. Terminning ma’nosidan anglashiladiki, qahramonning tashqi va ichki olamiga doir tavsiflar bir o‘rinda asosan asarning ekspozitsiyasida berib o‘tiladi. Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon ijodida buning ko‘plab namunalarini uchratish mumkin. Professor D. Quronov talqini bilan aytganda, bu portret turida personajning tashqi qiyofasi syujet voqeasi to‘xtatilgan holda ancha mufassal, detallashtirib chiziladi[1]. Xalq og‘zaki ijodi, mumtoz asarlardan tortib to zamonaviy adabiy jarayongacha bo‘lgan davrda statik portret keng qo‘llanilib, qahramonning tashqi qiyofasini barqaror va yaxlit holda ifodalash orqali uning obrazini shakllantirishda muhim badiiy-estetik ahamiyat kasb etadi. Odatda, bunday portretlar personaj yoki qahramon badiiy asar voqeligiga ilk bor kirib kelgan mahaldayoq kitobxonga tanishtiriladi va o‘quvchining ko‘z o‘ngida ma’lum bir shaxs haqida tasavvur uyg‘onadi. Qahramon tasviriga ko‘ra o‘sha qahramonga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabat shakllanishi mumkin.

Artur Konan Doylning badiiy mahoratidagi o‘ziga xoslik detektiv obrazini yaratishda uning do‘sti Uotson tomonidan “chizilgan” portretni afzal ko‘rishida namoyon bo‘ladi. Bu izquvar va uning ruhiyati bilan bog‘liq bor tafsilotlarni

mukammal, haqqoniy, jonli va xolis tavsiflash imkonini bergan. Muallif portretning dinamik usulidan foydalanishni detektiv asarning xususiyatiga ko‘ra to‘g‘ri tanlagan. Voqeliklar rivojida portretga xos chizgilarning birma-bir berib borilishi natijasida yuzaga keladigan kitobxon tasavvurlari izquvarga xos ma’lumot, dalillarni yig‘ish funksiyasi bilan parallel kechadi. Aytish mumkinki, portret turlarining hammasi turli yo‘sinda asar qahramonlarning badiiy qiyofasini yaratishga xizmat qiladi va yozuvchi o‘zining uslubi va badiiy maqsadidan kelib chiqib, ma’lum bir turini faol tarzda ham qo‘llashi mumkin.

Xolmsning sarguzashtlarida statik portretga ko‘p o‘rin berilmagan. Asarning ekspozitsiyasida, tugundan avval Xolms haqida kengroq, aniqrog‘i, bir abzas tavsif beriladi, undan ko‘p emas. Bu muallifning portret yaratishdagi uslubiy o‘ziga xosligi hisoblanadi.

“Men ko‘zda tutganimdek, Sherlok Xolms hali xalatda, mehmonxonada trubka chekib, “Tayms”ni o‘qib o‘tirgan ekan. Unda har-xil shaxslarning jinoyat qidiruv ishlari haqida yozadi. Odatda, u trubkani sinchiklab yig‘ilgan va kamin tokchasida quritilgan qolgan tamakilar bilan to‘ldirib nonushtadan oldin chekardi. U bizni o‘ziga xos xotirjamlik bilan kutib oldi-da, biz uchun ham tuxum va vetchina buyurdi. Va biz yaxshi nonushta qilib oldik. Ovqatlanib bo‘lgach, u bizning tanishimizni divanga o‘tqazdi-da, uning orqasiga yostiq qo‘ydi. Yoniga esa bir stakan suv bilan konyak qo‘ydi ”(“Muhandisning barmog‘i”B.71).

Detektiv asarlarda izquvarlarning tashqi qiyofasi u qadar mukammal chizilmaydi. Asosan psixologik portretlariga e’tibor qaratiladi. Shunday bo‘lsa ham bir nechta asarlarda an’anaviy tarzda asosiy qahramon maqomida keluvchi Xolmsning tashqi ko‘rinishidagi ba’zi bir belgilar uning umumiy qiyofasini gavdalantiradi. Bo‘yi baland va ozg‘in, qomatdor, cho‘ziq yuzli, iyagi ingichka, kulrang (ba’zi asarlarda ko‘kimtir)ko‘zlari o‘tkir, mayda tafsilotlargacha ilg‘aydigan, oddiy, ammo toza kiyinadi. Uyqudan turgandagi holatlarida qizil xalatli tasvirlanadi. Ko‘proq ertalab, ba’zan chuqur o‘ylagan paytlarida tamaki chekadi. Chehrasida qat’iyat, o‘ziga ishonch bor. Ushbu tavsiflar Xolms sarguzashtlari sikliga kiruvchi bir nechta asarlardan jamlangan umumiy tasavvurdir. Odatda bu ma’lumotlar dinamik tarzda berilgan.

Yuqoridagi misolda yangi bir jinoyat tafsilotlari boshlanishidan avval Xolmsning portreti beriladi. Mazkur statik portretda qiyofa va psixologik tavsiflar uyg‘unlashgan. Detektivning *xalatda, tamaki chekib, gazeta o‘qib o‘tirishi* uning ishdan holi, dam olish vaqtlaridagi oddiy inson ekanligi haqida tasavvur uyg‘otadi. Aslida bu navbatda ishga o‘zini jisman va ruhan tayyorlashga o‘xshaydi. Gazeta o‘qishi va unda nimalar bosilishi bilan bog‘liq izohning o‘ziyoq Xolmsning oddiy kunlari ham ish jarayonidan u qadar farq qilmasligiga amin bo‘ladi. Uyiga tashrif

buyuruvchilarni *xotirjamlik bilan kutib olishi*, yaxshi nonushtadan so‘nggina jinoyatga bog‘iq tafsilotlarni eshitish uchun suhbatdoshni ruhan tayyorlashi(*orqasiga yostiq , oldiga suv va konyak qo‘ydi*) uning muloqotlar psixologiyasini yaxshi egallaganidan dalolat beradi. Portretning bu tarzda berilishining o‘ziyoq asar qahramonlarinigina emas, kitobxonni ham navbatdagi jinoyat va uning fosh etilishiga doir voqeliklar silsilasiga tayyorlaydi.

Statik portret qahramonning qiyofasini barqaror holda tasvirlash bilan birga, uning xarakterini dastlabki bosqichdayoq belgilashga xizmat qiladi. Ko‘pincha asar boshida berilib, syujet rivoji uchun asosiy tayanch vazifasini ham bajarib keladi. Shuningdek, statik portret inson obrazining estetik yaxlitligini ta’minlab, o‘quvchi tasavvurida qahramonning konkret qiyofasi shakllanishiga ko‘maklashadi. Shu jihati bilan boshqa portret turlaridan ajralib turadi. Statik portretdan farqli ravishda, dinamik portretda qahramon tasviri batafsil bayon qilinmaydi.

“Dinamik” so‘zi yunoncha “dynamis” (kuch) so‘zidan olingan bo‘lib, asosiy ma’nosi “harakatlanuvchi, o‘zgaruvchan” demakdir. Dinamik portret epik va dramatik asarlarda qo‘llanilib, qahramon tasvirini asar voqealari davomida shakllanishiga xizmat qiladi. Adabiyotshunos Dilmurod Quronov dinamik portretga quyidagicha ta’rif beradi: “Dinamik portret deganda voqea va dialoglar jarayonida, ya’ni harakat davomida berib boriladigan tashqi ko‘rinishga xos ayrim detallar nazarda tutiladi. Bunday portret detallari (yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari) ko‘proq remarkalarda uchraydi va personajning ayni paytdagi ruhiy holatini ifodalashga xizmat qiladi”[2]. Dinamik portretning ushbu xususiyatlari adabiyotshunos A.Ulug‘ov qarashlarida ham o‘z ifodasini topgan. Uning ta’kidlashicha, dinamik portret personajning tashqi ko‘rinishi batafsil tasvirlanmasdan, balki voqealar rivoji va dialoglar jarayonida ayrim detallar orqali tavsiflanadi[3]. Ayni xususiyatiga ko‘ra ham portret berishning bu usuli detektiv asar kompozitsiyasiga, uning kanonik talablarig mos keladi. Artur Konan Doyl asarlarida dinamik portret ustuvorligi kuzatiladi. Detektiv asarning dramatizm asosiga qurilishi, voqeliklarning shiddatli kechimi ham dinamik portret berishni taqozo qiladi. Bunda portret voqeliklar davomida mukammallashib boradi.

“...U bir soatlarcha yo‘q bo‘lib ketdi. Qaytib kelganida esa uning oyog‘i rosa qorga botgandi. Yuzidan esa odatdagidek, hech narsani bilib bo‘lmasdi”...

“Xolms qanaqadir eski botinkani goh u tomon, goh bu tomon silkitib, ko‘tarinki kayfiyatda qaytib kelganda, men choy ichib bo‘lgandim. U botinkani burchakka otdi-da, o‘ziga choy quydi”.

“O‘zini tutishidan do‘stimning ishining natijasidan qoniqayotganini sezdim. Uning ko‘zlari yarqirardi, hatto, yuziga bir oz qizil ham yugurgan. U tepaga,

xonasiga chiqib ketdi va bir necha daqiqadan so‘ng kirish eshigimizning tovushini eshitdim. Xolms yana “ovga” ketdi(137-139b).

Detektiv asarlarda psixologik portret muhim o‘ri tutadi. Bu asardagi voqeliklar rivojiga ko‘ra qahramon xarakterining bosqichma-bosqich parallel ravishda dinamik o‘zgarib borishini ko‘rsatadi. Detektivning dinamik portreti uning ruhiyatidagi evrilishlarni, ruhiy ta’sirlanish, quvonch, g‘azab, nafrat, ruhiy qoniqish, tushkunlik kabi qator ruhiy holatlar dinamikasini namoyon etadi. Ko‘pincha bu holat surishtiruv, qidiruv ishlarining samaradorlik ko‘lami, natijadorligiga mos holatda kechadi. Keltirilgan misolda Xolmsning har bir ishga ijodkorona, borlig‘ini berib yondashishini sezish mumkin. Ish yurmagan, dalillar “tilga kirmagan” vaqtdagi Xolmsning ruhiy tushkunligi, ish yurishib ketgandan keyin (*ko‘tarinki kayfiyatda)*gi holatidan tubdan farq qiladi. Uning ruhiy holatini hatto jismi o‘z jestlari(*eski botinkani goh u tomon, goh bu tomon silkitib)* orqali namoyon etib turibdi.

Xolms berilib ijod qilayotgan(jinoyat bilan ishlayotgan) vaqtda xalal bermaslikni hamxona sifatida Uotson yaxshi biladi. Bunday vaqtlarda bir chetdan kuzatib turishni ma’qul ko‘radi. Chunki Xolms shuni tarafdori. *Uning ko‘zlari yarqirardi, hatto, yuziga bir oz qizil ham yugurgan* holati qidiruv, surishtiruv ishlarining anchayin jonlanib ketganidan darak beradi. Asar davomida Xolmsning mana shunday xarakterli statik portretlari mayoq singari kitobxonni voqeliklar shiddatidan ogoh etib turadi. Ko‘zlarning yarqirashi, yuzga qizillik yugurishi izquvar ruhiy holatining yorqin ifodasidir. Ayni kontekstning o‘zida izquvar portretining birinchi tavsifi, uchinchi tavsif bilan kontrastlik hosil qiladi.

“Psixologik belgilar portret tasvirida aniq ko‘rinadi. Mohir san’atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur yoritadi. Portret bilan xarakter yo‘nalishi o‘rtasida birlik bo‘lishi, portret qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim”[4].

Xulosa o’rnida shuni aytish mumkinki, portretning barcha turlari obrazni shakllantirishda va qahramon ruhiyati yoritishda muhim o’rin tutadi. Artur Konan Doyl detektiv asarlarida portretning statik, dinamik va psixologik turlaridan foydalanish bilan bir qatorda, dinamik portretning yetakchiligini ko’rishimiz mumkin. Sherlok Xolms sarguzashtlarida Uotson go‘yoki detektivning hayotini kadrga muhrlayotgan operatordek harakat qiladi. Izquvarning har bir holatini, harakatini aniq-ravshan tavsiflab boradi. Uoston nigohidan chizilgan psixologik portretlar ham detektivning ruhiy olamini yorqin namoyon etishda eng muhim vazifani bajargan. Xususan, uning har bir ish jarayonidagi ruhiy holatini tafakkur san’ati sohibi sifatida jo‘shqin ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov D. Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. - T., Akademnashr, 2013. – B.226.

2. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. - T.1992, G‘afur G‘ulom nomidagi nashr – B.63.

3. Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ. 2007. – Б.187

4. Doyle A. C. The Adventures of Sherlock Holmes. — London: George Newnes, 1892.